




Tadqiqot.uz



**ЎЗБЕКИСТОН
ОЛИМЛАРИ ВА
ЁШЛАРИНИНГ
ИННОВАЦИОН
ИЛМИЙ-АМАЛИЙ
ТАДҚИҚОТЛАРИ
МАВЗУСИДАГИ КОНФЕРЕНЦИЯ
МАТЕРИАЛЛАРИ**

2021

- » Ҳуқуқий тадқиқотлар
- » Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар
- » Тарих саҳифаларидаги изланишлар
- » Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни
- » Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни
- » Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар
- » Педагогика ва психология соҳаларидаги инновациялар
- » Маданият ва санъат соҳаларини ривожланиши
- » Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши
- » Техника ва технология соҳасидаги инновациялар
- » Физика-математика фанлари ютуқлари
- » Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар
- » Кимё фанлари ютуқлари
- » Биология ва экология соҳасидаги инновациялар
- » Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари
- » Геология-минерология соҳасидаги инновациялар



**31 IYUL
№30**

CONFERENCES.UZ

**"ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ТАДҚИҚОТЛАР"
МАВЗУСИДАГИ РЕСПУБЛИКА 30-КЎП ТАРМОҚЛИ
ИЛМИЙ МАСОФАВИЙ ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИЯ
МАТЕРИАЛЛАРИ
18-ҚИСМ**

**МАТЕРИАЛЫ РЕСПУБЛИКАНСКОЙ
30-МЕЖДИСЦИПЛИНАРНОЙ ДИСТАНЦИОННОЙ
ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИИ НА ТЕМУ "НАУЧНО-
ПРАКТИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ"
ЧАСТЬ-18**

**MATERIALS OF THE REPUBLICAN
30-MULTIDISCIPLINARY ONLINE DISTANCE
CONFERENCE ON "SCIENTIFIC AND PRACTICAL
RESEARCH IN UZBEKISTAN"
PART-18**

ТОШКЕНТ-2021



УУК 001 (062)
КБК 72я43

"Ўзбекистонда илмий-амалий тадқиқотлар" [Тошкент; 2021]

"Ўзбекистонда илмий-амалий тадқиқотлар" мавзусидаги республика 30-кўп тармоқли илмий масофавий онлайн конференция материаллари тўплами, 31 июль 2021 йил. - Тошкент: «Tadqiqot», 2021. - 42 б.

Ушбу Республика-илмий онлайн конференция 2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналишлари бўйича Ҳаракатлар стратегиясида кўзда тутилган вазифа - илмий изланиш ютуқларини амалиётга жорий этиш йўли билан фан соҳаларини ривожлантиришга бағишланган.

Ушбу Республика илмий конференцияси таълим соҳасида меҳнат қилиб келаётган профессор - ўқитувчи ва талаба-ўқувчилар томонидан тайёрланган илмий тезислар киритилган бўлиб, унда таълим тизимида илғор замонавий ютуқлар, натижалар, муаммолар, ечимини кутаётган вазифалар ва илм-фан тараққиётининг истиқболдаги режалари таҳлил қилинган конференцияси.

Масъул муҳаррир: Файзиев Шохруд Фармонович, ю.ф.д., доцент.

1. Ҳуқуқий тадқиқотлар йўналиши

Профессор в.б., ю.ф.н. Юсувалиева Рахима (Жахон иқтисодиёти ва дипломатия университети)

2. Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар

Доцент Норматова Дилдора Эсоналиевна (Фарғона давлат университети)

3. Тарих саҳифаларидаги изланишлар

Исмаилов Ҳусанбой Маҳаммадқосим ўғли (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Таълим сифатини назорат қилиш давлат инспекцияси)

4. Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни

Доцент Уринбоев Хошимжон Бунатович (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)

5. Давлат бошқаруви

Доцент Шакирова Шохида Юсуповна (Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети)

6. Журналистика

Тошбоева Барнохон Одилжоновна (Андижон давлат университети)

7. Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар

Самигова Умида Хамидуллаевна (Тошкент вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)



8.Адабиёт

PhD Абдумажидова Дилдора Рахматуллаевна (Тошкент Молия институти)

9.Иқтисодиётда инновацияларнинг туган ўрни

Phd Вохидова Мехри Хасанова (Тошкент давлат шарқшунослик институти)

10.Педагогика ва психология соҳаларидаги инновациялар

Турсунназарова Эльвира Тахировна (Навоий вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)

11.Жисмоний тарбия ва спорт

Усмонова Дилфузахон Иброхимовна (Жисмоний тарбия ва спорт университети)

12.Маданият ва санъат соҳаларини ривожлантириш

Тоштемиров Отабек Абидович (Фарғона политехника институти)

13.Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши

Бобохонов Олтибой Рахмонович (Сурхандарё вилояти техника филиали)

14.Тасвирий санъат ва дизайн

Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

15.Муסיқа ва ҳаёт

Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

16.Техника ва технология соҳасидаги инновациялар

Доцент Нормирзаев Абдуқайом Раҳимбердиевич (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)

17.Физика-математика фанлари ютуқлари

Доцент Соҳадалиев Абдурашид Мамадалиевич (Наманган муҳандислик-технология институти)

18.Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар

Т.ф.д., доцент Маматова Нодира Мухтаровна (Тошкент давлат стоматология институти)

19.Фармацевтика

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

20.Ветеринария

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

21.Кимё фанлари ютуқлари

Рахмонова Доно Қаххоровна (Навоий вилояти табиий фанлар методисти)



22. Биология ва экология соҳасидаги инновациялар

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

23. Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари

Доцент Сувонов Боймурод Ўралович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

24. Геология-минерология соҳасидаги инновациялар

Phd доцент Қаҳҳоров Ўктам Абдурахимович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

25. География

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

Тўпламга киритилган тезислардаги маълумотларнинг хаққонийлиги ва иқтибосларнинг тўғрилигига муаллифлар масъулдир.

© Муаллифлар жамоаси

© Tadqiqot.uz

PageMaker\Верстка\Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

**БИМЕДИЦИНА ВА АМАЛИЁТ СОҲАСИДАГИ
ИЛМИЙ ИЗЛАНИШЛАР**

| | |
|---|----|
| 1. Зокиров Музаффар ОИВ ЭНЦЕФАЛОПАТИЯСИ БЎЛГАН БЕМОРЛАРДА КОГНИТИВ БУЗИЛИШИНИНГ ҲУСУСИЯТЛАРИ..... | 7 |
| 2. Набиев Абдусамат Уткурович КОМОРБИД ҲОЛАТЛАРДА КАМҚОНЛИКНИНГ КЕЧИШ ҲУСУСИЯТЛАРИ..... | 9 |
| 3. Aliyeva Muslima Mansurovna LEGISLATIVE FRAMEWORK FOR COMBATING CORONAVIRUS INFECTION..... | 11 |
| 4. Do'stmurodov Ulug'murod Isomiddin o'g'li O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA SOG'LIQNI SAQLASH TIZIMI VA XORIJ AMALIYOTI..... | 13 |
| 5. Gulira'no Musliddinovna Qahorova, Jonibek Rashitovich Raximov, Mohinur Sodiqovna Muhammedova, Ithom Ikromovich Jo'rayev ANOR (PUNICA GRANATUM) MEVASINING TARKIBI VA SHIFOBAXSH XUSUSIYATLARI | 15 |
| 6. Nishonqulov Shohruh Farxodjon o'g'li BIOTIBBIYOTNING KELAJAGIDA AXBOROT TEXNALOGIYALARINING QO'LLANILISHI | 17 |
| 7. Базарбаева Айнура Бахтияровна МЕДИЦИНА ЧЕЛОВЕЧЕСКОГО СНА В ПЕДИАТРИИ..... | 19 |
| 8. Djurayev Ravshan Usmanovich, Karabaev Hurrām Esanqulovich BALLOON DILATION FOR PEDIATRIC LARYGEAL STENOSIS: CASE SERIES AND SYSTEMATIC REVIEW..... | 21 |
| 9. Мустафакулова Азиза АСПЕКТЫ КАСАЮЩИЕСЯ РАЗРАБОТКИ ВАКЦИНАЦИИ ПРОТИВ ВГВ..... | 23 |
| 10. Инатуллаева Раъно Юнусовна КЕКСАЛАРДА СИСТОЛИК ГИПЕРТОНИЯНИНГ КЕЧИШИ..... | 26 |
| 11. Каипбергенов Мухаммед Батырбекович ВЛИЯНИЕ ЙОДИДА И ПЕРХЛОРАТА КАЛИЯ НА ОТДЕЛЬНЫЕ ПАРАМЕТРЫ СЕКРЕЦИИ ТИРЕОИДНЫХ ГОРМОНОВ | 28 |
| 12. Нуруллаев Нодирбек Намозович НЕВРОЛОГИЯ СОҲАСИДА ПОСТКОВИД СИНДРОМИ КУЗАТИЛГАН БЕМОРЛАРНИНГ ЎЗИГА ХОС ҲУСУСИЯТЛАРИ..... | 30 |
| 13. Сагатов Дилноза Рахимовна СКОРРЕЛИРОВАННОСТЬ ЭНДОТЕЛИАЛЬНОЙ ДИСФУНКЦИИ И РАЗВИТИЯ ОСТЕОАРТРИТА В СОЧЕТАНИИ С КОМОРБИДНОЙ ПАТОЛОГИИ | 32 |
| 14. Ташпулатова Мактуба Мухамедалиевна КЛИНИКО-ИММУНОЛОГИЧЕСКАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА РАННЕГО РЕВМАТОИДНОГО АРТРИТА | 34 |
| 15. S.Z.Xudayberganova IZOPROPIL SPIRTNING TIBBIYOTDA ANTISEPTIK VOSITA SIFATIDA QO'LLANILISHI | 36 |
| 16. Шокирова Чарос Тохиржон қизи ЎТКИР ОБСТРУКТИВ БРОНХИТ | 38 |
| 17. Искандарова Сайёра БИМЕДИЦИНА И НАУЧНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ НА ПРАКТИКЕ..... | 40 |



БИОМЕДИЦИНА ВА АМАЛИЁТ СОҲАСИДАГИ ИЛМИЙ ИЗЛАНИШЛАР

ОИВ ЭНЦЕФАЛОПАТИЯСИ БЎЛГАН БЕМОРЛАРДА КОГНИТИВ БУЗИЛИШНИНГ ХУСУСИЯТЛАРИ

Зокиров Музаффар

Тошкент тиббиёт академияси
"Асаб касалликлари" кафедраси

Стажер тадқиқотчи

Телефон +998916670840
muzaffarzokirov91@mail.ru

Аннотация: Ушбу мақолада ОИВ инфекциясининг асоратлари турларидан бири, ОИВ билан боғлиқ энцефалопатия муҳокама қилинади. Касалликнинг клиник хусусиятлари ва диагностик мезонлари мақолада кўриб чиқилган. Беморлар Монреал Когнитив баҳолаш ўлчови ёрдамида текширилди ва ушбу беморларда когнитив касалликлар спектри таҳлил қилинди.

Калит сўзлар: ОИВ инфекцияси, одам иммунитет танқислиги вируси, орттирилган иммунитет танқислиги, когнитив ҳолат, энцефалопатия, МоКА - тест.

Муаммонинг долзарблиги. ОИВ – энцефалопатиясини неврологик намоён бўлиши бўйича бирламчи ва иккиламчи турларига таснифланади. Бирламчи бўлганлар вируснинг тўғридан-тўғри зарарли таъсири, иккиламчи тури эса аутоиммун жараёнлари ва дори терапиясининг нейротоксик таъсири билан боғлиқ. ОИВ инфекциясида асаб тизимининг бирламчи (тўғридан-тўғри) зарарланиш белгилари марказий асаб тизимининг шикастланишлари ва периферик асаб тизимининг шикастланишларига бўлинади. [1,2]

ОИВ билан боғлиқ деменция (ОИВ энцефалопатияси, ОИТС-Д) асаб тизимининг бирламчи зарарланишининг энг кенг тарқалган шакли булиб, ОИТС билан касалланганларнинг 60 фоизида кузатилади. Ҳозирги вақтда юқори фаол антиретровирус терапияси даврида ОИТСнинг ушбу шакли билан касалланиш камайган. 25% ҳолларда у ОИТСнинг асосий намоёйиши сифатида, яъни бошқа клиник аломатлар пайдо бўлишидан олдин кузатилади. Ушбу шаклда мия ярим шарлари оқ моддасида, субкортикал соҳада, бош мия устунидан бўлган яллиғланиш ва демиелинизация жараёни булиб, бу мултифокал улкан хужайра энсефалити ва прогрессив диффуз лейкоенсефалопатия натижасидир[2,3].

Тадқиқотнинг мақсади: ОИВ энцефалопатиясидаги когнитив бузилишлар даражасини аниқлаш ва уни узига ҳослигини ёритиш

Материаллар ва тадқиқот усуллари . Тадқиқот учун Республика ОИТСга қарши кураш марказининг Фарғона филиалида даволанган 53 нафар бемор тасодифий танлаб олинди . Улар орасида, 33 эркак (62 , 3 %) ва 20 аёл (37,7 %), ўртача ёши $31,7 \pm 1,1$ йил. Когнитив тадқиқотлар ва когнитив функцияларни баҳолаш учун Монреал шкаласи ёки қисқартирилган МоКА – тест танланди. Бу когнитив нуқсонлари бўлган беморларни ўрганиш учун ҳозирги кунда энг сезгир ва қулай тест [5].

Тадқиқот натижалари. Тадқиқот натижасида МоКА тестнинг ўртача баҳоси $21,6 \pm 0,85$ баллга тенг булиб, бу натижа когнитив бузилишнинг энгил даражасига туғри келади. Когнитив бузилишнинг оғирлиги тўғрисидаги маълумотлар 1-жадвалда келтирилган , шундан келиб чиқадики , беморларнинг асосий контингенти энгил когнитив касалликлар даражасига туғри келади



Жадвал №1

| | |
|--------------------------------|------------|
| Когнитив этишмовчилик даражаси | Учраш |
| Когнитив бузилиш йўқ | 4 (7,54%) |
| Енгил КБ билан | 25 (47,2%) |
| Ўрта оғир КБ билан | 14 (26,4%) |
| Оғир КН билан | 10 (18,9%) |

Когнитив бузилишлар орасида беихтиёр хотиранинг бузилиши ва диққатни жамлаш устунлик қилади. Динамик ва конструктив праксис, ўқиш ва ёзиш ўртача даражада бузилган. Юқори асабий фаолиятнинг вақт, жой ва ўз шахсиятига ориентация, нутқни тушуниш ва мураккаб мантикий ва грамматик тузилмалар, ифодали нутқ, ўқиш ва ёзиш каби жиҳатлари бузилиши нисбатдан камроқ учради. Батафсил маълумот 2-жадвалда келтирилган.

Жадвал 2

| Когнитив функция | Когнитив бузилиш ҳолатлари |
|--|----------------------------|
| 1) вақт бўйича ориентация | 15, 4 ± 4.2 |
| 2) жойида ориентация | 7.4 ± 3.1 |
| 3) ўз шахсида ориентация | 0 |
| 4) беихтиёр хотира | 86, 4 ± 4,5 |
| 5) нутқ ва мураккаб мантикий ва грамматик тузилмаларни тушуниш | 28.0 ± 6.5 |
| 6) ифодали нутқ | 17.8 ± 4.2 |
| 7) динамик праксис | 45, 2 ± 6.8 |
| 8) конструктив праксис | 52, 6 ± 6.3 |
| 9) ўқиш | 29, 2 ± 6.5 |
| 10) ёзиш | 34, 3 ± 6.8 |
| 11) концентрация | 81, 3 ± 5.3 |

Хулоса: ОИВ энцефалопатияси билан касалланган беморларнинг когнитив ҳолатини ўрганиш, илгари ўтказилган тадқиқотлардан фарқли ўлароқ, енгил когнитив бузилишларнинг устунлигини кўрсатади ва бу ҳолат юқори даражада фаол антиретровирус терапиясини қўллаш билан боғлиқ бўлиши мумкин. Когнитив бузилишлар спектри орасида хотира ва эътибор бузилиши устунлик қилади, дизориентация ва нутқнинг бузилиши камроқ учраши кузатилди.

Адабиётлар:

1. Bartt R.E. "The Neurology of AIDS" JAMA 2006. P. 295-331
2. Евтушенко С.К., Деревянко И.Н. "Актуальные вопросы диагностики и лечения первичного и вторичного нейроспида" ВЕСТНИК Клинической больницы №51 2009 год стр. 17 – 23
3. Макаров А.Ю., Чикова Р.С., Улюкин И.М., Помников В.Г. "Неврологические синдромы при ВИЧ-инфекции". Неврологический журнал 2004; 5: 45—52.
4. Donovan Maust, Mario Cristancho, Laurie Gray, Susan Rushing, Chris Tjoa. Chapter 13 - Psychiatric rating scales // Handbook of Clinical Neurology / Michael J. Aminoff, François Boller, Dick F. Swaab. — Elsevier, 2012-01-01. — Т. 106. — С. 227–237.
5. Ziad S. Nasreddine, Natalie A. Phillips, Valérie Bédirian, Simon Charbonneau, Victor Whitehead. "The Montreal Cognitive Assessment, MoCA: A Brief Screening Tool For Mild Cognitive Impairment" Journal of the American Geriatrics Society. — 2005. — Vol. 53, iss. 4. — P. 695–699



КОМОРБИД ҲОЛАТЛАРДА КАМҚОНЛИКНИНГ КЕЧИШ ҲУСУСИЯТЛАРИ

Набиев Абдусамат Уткурович

Республика ихтисослаштирилган
педиатрия илмий-амалий тиббиёт маркази,
Тошкент, Ўзбекистон
+998903597515
dil_nab@mail.ru

Аннотация: Сўнгги йилларда турли коморбид касалликлар мавжуд беморлар ҳаёт сифати ва унинг давомийлигига салбий таъсир кўрсатувчи ҳамда унинг кечишини оғирлаштирувчи омиллар орасида камқонлик етакчи ўрин тутишига алоҳида эътибор берилмоқда [1]. Юрак ва буйракдаги патологик жараёнлар ўзаро яқин боғлиқлигини ҳисобга олиб, қатор тадқиқотчилар сўнгги йилларда кўп ҳолларда кардиоренал синдром (КРС) атамасини ишлатишмоқда ва унга турлича таърифлар берилган [2]. «Ривожланган мамлакатларда КРС билан кечган беморларнинг 10-55% да камқонлик биргаликда учраб, ушбу кўрсаткич коморбид ҳолатларни сонини ошиб боришига ҳамоҳанг равишда кўпайиб боради ва кардиогепаторенал синдромида 90% га яқинини ташкил этади» [3]. Коморбидлик билан кечган касалликларда камқонлик кузатилганда унинг ўзига хос кечиши, ушбу патологик жараёнда уни эрта ташхислаш, самарали даволаш ҳамда олдини олиш тиббиётнинг долзарб муаммоси ҳисобланади.

Калит сўзлар: Темир танқислиги камқонлиги, коморбид ҳолатлар, трансферрин, ферритин, гепсидин.

Темир танқислигида трансферринни эрувчи рецепторларининг кўрсаткичлари кескин ошиши, сурункали касалликларда кузатиладиган камқонликда ўзгаришсиз қолиши, буйрак дисфункцияси билан боғлиқ бўлган камқонликда эса камайишини ҳисобга олсак, солиштирма ташхисни энгиллаштириш мақсадида унинг қондаги концентрациясини аниқлаш барча турдаги камқонликлар, жумладан, сурункали юрак етишмовчилиги (СЮЕ) камқонлик билан кечган беморларда ҳам муҳим илмий ва амалий аҳамият касб этади.

Тадқиқот материаллари ва усуллари. Тадқиқотда сурункали касалликлар камқонлиги СЮЕ билан кечган “СЮЕ+СКК” гуруҳ 70 нафар беморлардан иборат бўлиб, уларнинг ўртача ёши $65,1 \pm 0,7$, эркалар 35 (50%) ва аёллар эса 35 (50%) ни, шунингдек, II ФС ни 28 (41,2%) ва III ФС ни 42 (58,8%) нафар беморлар ташкил этди. Ушбу гуруҳдаги беморларнинг 49 (72%) ИККС, аорта коронар шунтлаш (АКШ) ёки стентлаш амалиёти ўтказганлар - 8 (11,7%), семизлик - 24 (35,2%), II тип ҚД - 5 (7,3%) атрофик гастрит - 9 (10,2%), эрозив-яралли касалликлар - 8 (11,7%) нафар беморларда аниқланди. Тадқиқотга жалб этилган беморларда СЮЕ ташхиси ва унинг функционал синфлари уларнинг шикоятлари, анамнези, объектив кўрик ва лаборатор – асбобий текширувлар асосида 2019 йилда Европа кардиологлар уюшмаси томонидан янгиланган “Ўткир ва сурункали юрак етишмовчилигини ташхислаш ва даволаш бўйича тавсиялар” ҳамда Нью-Йорк кардиологлар жамияти (New – York Heart Association, 1964) мезонларига кўра аниқланди. СЮЕ мавжуд беморларда камқонликни аниқлаш ва унинг оғирлигини баҳолаш учун қон зардобидида гемограмма кўрсаткичлари (гемоглобин, эритроцитлар сони, эритроцитнинг ўртача хажми (MCV), эритроцитларда ўртача гемоглобин миқдори (MCH), ранг (pK) ҳамда феррокинетиқ кўрсаткичлар (ферритин, зардобдаги темир, трансферрин, трансферрин эрувчи рецептори, ЭПО) аниқланди.

Натижалар: Камқонлик юрак етишмовчилиги билан бирга кечганда гемоглобин миқдори билан темир миқдори ўртасида боғлиқлик ўрганилганда мос равишда $r=0,778$ ($p<0,0001$) бўлиб, юқори мусбат боғлиқлик аниқланди. Зардобдаги трансферрин миқдори ўртача $4,9 \pm 0,2$ г/л ташкил этиб, назорат гуруҳидаги беморларга нисбатан 36,1% ($p<0,05$) баланд эканлиги аниқланди. Ферритин кўрсаткичи $188,6 \pm 6,7$ мкг/л ташкил этиб назорат гуруҳига нисбатан мос равишда 52,6% ($p<0,001$)га ишончли камайганлиги аниқланди. Текширувимизда беморлардаги гепсидин кўрсаткичи назорат гуруҳига нисбатан 2,4 баробарга камайганлиги ($p<0,001$) қайд этилди. Пирсон корреляцион тизимида гепсидин миқдори билан гемоглобин даражасини ўзаро боғлиқлиги ўрганилганда бунда гемоглобин кўрсаткичи билан ўзаро тескар кучли боғлиқлик ($r=-0.648$; $p<0.001$) қайд этилди. Зардобдаги эритропоэтин миқдори



референс кўрсаткичлар чегарасида сақланган бўлсада, назорат гуруҳига нисбатан 49,8% ($p < 0,001$) ишонarli паст кўрсаткичларда яъни $8,5 \pm 0,5$ mIU/ml га камайганлиги қайд этилди. Кузатувдаги беморларда sTfR ва юқорида келтирилган феррокинетиқ кўрсаткичлар ўртасида ўзаро корреляцион боғлиқлик тахлил қилинганда, sTfRни организмда темир алмашинуви мувозанати бузилишини англатувчи фаол биологик моддалар, жумладан, ферритин билан кузатувдаги СЮЕ+СКК гуруҳида ишончли боғлиқлик аниқланмади $r = -0,140$ ($P > 0,05$).

Хулоса. Темир танқислик камқонлигининг коморбид ҳолатларда юзага келишида темирнинг сўрилишини камайиши аҳамиятга эга бўлиб таххислашда эрувчи трансферрин рецепторлари, ферритин, гепсидин, эритропоезиннинг ўрни ва sTfRни организмда темир алмашинуви мувозанатидаги аҳамияти юқорилиги аниқланди.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Долгов В.В., Луговская С.А., Морозова В.Т., Почтарь М.Е. Лабораторная диагностика анемий. М. Тверь. «Триада», 2009.
2. Луговская С.А., Почтарь М.Е. Гематологический атлас М. Тверь, Триада, 2011
3. Национальное руководство по клинической лабораторной диагностике Ред. В.В.Долгов, В.В.Меньшиков т.1, ГЭОТАР Медиа, 2012



LEGISLATIVE FRAMEWORK FOR COMBATING CORONAVIRUS INFECTION

Aliyeva Muslima Mansurovna
4th year student of the Uzbekistan
State Institute of Arts and Culture

Annotation: In this situation, the strategic task of the personnel policy of Uzbekistan, the solution of which largely depends on the success of the main directions anti-epidemic work against COVID-19 and training and retraining of medical personnel for all levels of healthcare in the field of coronavirus prevention infection and the system of anti-epidemic measures.

Key words: coronavirus infection, prevention, COVID-19, anti-epidemic event.

The global pandemic of coronavirus infection turned out to be a serious test and a huge school of experience for the national health care system of our republic.

The COVID-19 pandemic, also known as the coronavirus pandemic, is an ongoing global pandemic of coronavirus disease 2019 (COVID-19), which is caused by severe acute respiratory syndrome coronavirus 2 (SARS-CoV-2). The virus was first identified in December 2019 in Wuhan, China. The World Health Organization declared a Public Health Emergency of International Concern on 30 January 2020, and later declared a pandemic on 11 March 2020. As of 4 July 2021, more than 183 million cases have been confirmed, with more than 3.97 million confirmed deaths attributed to COVID-19, making it one of the deadliest pandemics in history.

The adoption of correct and timely decisions by the country's leadership has become decisive and has yielded effective results [1,2].

In his Address to the Oliy Majlis, the head of state emphasized that the pandemic will once again she said that radical reform of the primary health care system, the ambulance service, the sanitary-epidemiological system is a vital necessity.

In a short time, in the capital city of Tashkent and the regions of the republic, about 30 thousand medical beds were organized for those infected with a new coronavirus infection. Over 200 thousand medical workers were involved in the fight against the pandemic, as well as 150 foreign highly qualified doctors and specialists from South Korea, China, Germany and the Russian Federation. Additional large the number of medical equipment (ventilators, diagnostic tests PCR and ELISA, etc.) and ambulances. Taking into account the best foreign practice and the accumulated domestic experience, the methods and tactics of treating patients with coronavirus infection are being improved [3].

It is important to note here the joint efforts of the Republic of Uzbekistan and the UN in the field of health in the framework of the Agenda for Sustainable Development for the period up to 2030. A historically important document was the Decree of the President "On Comprehensive Measures for the Fundamental Improvement of the Healthcare System of the Republic of Uzbekistan" dated December 7, 2018, within the framework of which the Concept for the development of the health care system of the Republic of Uzbekistan for 2019-2025 was adopted. Currently, in the context of a pandemic, active work is underway to form a conceptually new model of health care through the successful implementation of the Concept, which provides for co relevant goals, objectives and main directions. The document was developed in accordance with the regulatory legal acts of our country that regulate activities in the field of health care, as well as international treaties in the field of health protection population within the framework of the regional policy Health 2020 and the Sustainable Development Goals for the period up to 2030 [4].

It should be noted that at the present stage, burdened by the pandemic, the new corona viral infection, priority areas for further development of health care of the republic, are determined by the improvement of legislation, systems of organization and management, financing. Providing medical care to mothers and children, improving the quality and availability of medical care, supporting a healthy lifestyle, prevention and control of infectious and non-infectious diseases, development private healthcare, public-private partnerships and medical tourism, the pharmaceutical industry, the formation of an effective system for training, retraining and advanced training of medical personnel, as well as the development of medical science, the widespread introduction of information and communication technologies and the development of "e-health" [7].

Another important area was the policy of digitalization and modernization of the healthcare



system in Uzbekistan. In order to further improve the effectiveness of reforms, introduction into the field of advanced and digital technologies, as well as quality management, the most complete use of the potential of medical institutions of the country, a resolution of the head of state was adopted "On measures to further improve the system public administration of the healthcare sector" dated October 2, 2020.

The Decree of the President was also adopted "On measures to introduce fundamentally new mechanisms in the activities of primary health care institutions and further improving the efficiency of reforms in the health care system" dated November 12, 2020. Within the framework of which, an improved service of medical prevention and patronage is being introduced in 26 districts (cities) of the republic. At the points of the family doctor, polyclinics (including multidisciplinary central ones), a round-the-clock watch of medical workers is introduced based on the population size and the need on the ground.

Yesterday, more than 155 thousand doses of vaccine were used in our country, and the number of vaccines used in the vaccination process exceeded 3.8 million doses. On July 1, 155,019 doses of COVID-19 vaccine were administered across the country.

Tips for protecting against viral infections!

- Strengthen immunity and monitor your condition.
 - Proper nutrition, healthy sleep, exercise and water balance in the body.
 - Consult a doctor in a timely manner.
 - If you find the first signs of SARS, contact your family doctor immediately.
 - Wash your hands thoroughly with soap and water, of course, and often, throughout the day.
 - Or use antiseptics, the alcohol content of which should be at least 60-80%.
 - Avoid contact with people with signs of SARS.
 - With patients and people with cold symptoms, the distance should be at least 2 meters.
 - Consume thermally processed foods.
 - Don't eat raw meat, raw fish, raw eggs, raw milk, unpasteurized sour cream!
- Be vigilant. Protect yourself and your family from the virus!

Literature.

1. Lvov D.K., Alkhovsky S.V., Kolobukhina L.V., Burtseva E.I. Etiology of the epidemic outbreak of COVID-19 in Wuhan (Hubei province, China), associated with the virus 2019-nCov: Lessons from the SARS-CoV Epidemic // Questions of Virology. 2020; 65 (1); pp. 6-15.
2. Musabaev E.I., Rakhimov R.A., Sharapov B.M. and others. Interim recommendations for prevention, diagnosis and treatment of the new coronavirus infection 2019-nCov. Tashkent. 2020.
3. Uzbekistan// URL: <http://coronavirus.uz/ru>
4. <https://ru.m.wikipedia.org/wiki/COVID-19>



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA SOG'LIQNI SAQLASH TIZIMI VA XORIJ AMALIYOTI

Do'stmurodov Ulug'murod Isomiddin o'g'li
Toshkent shahar yuridik texnikumi 1-kurs talabasi
Telefon: +998 94 626 37 61

Annotatsiya: Sog'liqni saqlash sohasidagi tadqiqotlar global sog'liqni saqlash uchun juda muhimdir. Rivojlanayotgan mamlakatlarda ko'plab muammolar bilan bir qatorda sog'liqni saqlash tadqiqotlari uchun imkoniyatlar ham mavjud. Ushbu maqola sog'liqni saqlash tizimi va tibbiyot sohasidagi chora-tadbirlar va tadqiqotlarni tahlil qilishga qaratilgan.

Kalit so'zlar: sog'liqni saqlash tizimi, tibbiyot sohasi, tadqiqotlar, muammolar, rivojlanayotgan mamlakat, chora-tadbirlar, konsepsiya, kompleks chora-tadbirlar

Sog'liqni saqlash milliy farovonlikning hal qiluvchi omilidir. Yurtimizda xorijiy davlatlar tajribalaridan kelib chiqib sog'liqni saqlash tizimi doimiy ravishda takomillashib va yangilanib borayotgan sohalardan biri hisoblanadi. Shu kunlarda bu sohada yaratilayotgan zamonaviy texnologiyalar tibbiy tadqiqotlar sifatini yuksaltirish, kasalliklarni erta aniqlash va samarali va tezkor davolash imkoniyatini yanada kengaytirmoqda. Shuningdek, mamlakatimizda sog'liqni saqlash tizimini isloh qilish chora-tadbirlarini amalga oshirish doirasida aholiga tibbiy yordam ko'rsatishning zamonaviy tizimini shakllantirish borasida muayyan natijalarga erishildi. Yurtimizda aholi salomatligini saqlash va yaxshilash imkonini beradigan sifatli sog'liqni saqlash tizimini tashkil etish, sog'lom avlod tarbiyasi uchun shart-sharoit yaratish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi hisoblanadi.

Darhaqiqat, yuqumli kasalliklarga qarshi kurashish bo'yicha kompleks profilaktika, epidemiyaga qarshi va sanitariya-gigiena tadbirlarining joriy etilishi o'ta xavfli yuqumli kasalliklar (o'lat, vabo), poliomielit, difteriya, chaqaloqlar qoqsholi, mahalliy kelib chiqqan bezgak, qizamiq va qizilcha yuzaga kelishidan to'liq himoya qilish imkonini berdi. Poliomielitning yovvoyi shtammi (2002 yil), qizamiq va qizilcha (2017 yil), bezgak (2018 yil) yo'q qilinganligi to'g'risida Jahon sog'liqni saqlash tashkilotining sertifikatlari olindi. Shu bilan birga, sog'liqni saqlashni tashkil etishda fuqarolar sog'lig'ini saqlash tizimini yanada takomillashtirishga oid vazifalarni samarali hal qilishga to'stinlik qilayotgan ayrim muammoli masalalar va salbiy holatlar saqlanib qolmoqda. Sog'liqni saqlash birlamchi bo'g'inining profilaktika, patronaj va o'z vaqtida davolash-tashxis qo'yish ishlari, shu jumladan ambulatoriyada davolashni oxirigacha yetkazish samaradorligi qoniqarsizligicha qolmoqda. Buning natijasida aholi sog'lig'ini saqlash tizimida qimmat turadigan stasionar yordam asosiy o'rinni egallamoqda.

Tadqiqot salohiyatini kuchaytirish milliy sog'liqni saqlash muammolarini hal qilishning eng kuchli, samarali va barqaror usullaridan biridir va shu bilan milliy rivojlanishga hissa qo'shadi. Ilmiy tadqiqotlar rivojlangan mamlakatlarda texnologiya va sog'liqni saqlashni rivojlantirishda hal qiluvchi rol o'ynaganligi tan olingan, ammo rivojlanayotgan mamlakatlarda, xususan ushbu mamlakatlarda aholining kambag'al qatlamlari bundan ozgina foyda ko'rishgan. Bir qator kamchiliklar sog'liqni saqlashning sifatiga bo'lgan aholining tobora ortib borayotgan talablarini qondirish, joylarda to'planib qolgan muammolarga tezkorlik bilan munosabat bildirish va tibbiy xizmat ko'rsatish sohasida ijobiy o'zgarishlarga erishish imkonini bermayapti. Shu munosabat bilan bir qator maqsadlar, vazifalar va asosiy yo'nalishlarni nazarda tutuvchi 2019 — 2025 yillarda O'zbekiston Respublikasida sog'liqni saqlash tizimini rivojlantirish konsepsiyasini muvaffaqiyatli amalga oshirish orqali sog'liqni saqlashning konseptual yangi modelini shakllantirish zarurati paydo bo'ldi. 2019 — 2025 yillarda O'zbekiston Respublikasida sog'liqni saqlash tizimini rivojlantirish konsepsiyasi sog'liqni saqlash sohasidagi faoliyatni tartibga soladigan O'zbekiston Respublikasining normativ-huquqiy hujjatlariga, shuningdek, aholi sog'lig'ini saqlash sohasidagi xalqaro shartnomalarga muvofiq ishlab chiqildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2018-yil 7-dekabrda 5590-son farmoni O'zbekiston Respublikasi sog'liqni saqlash tizimini tubdan takomillashtirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar to'g'risida bo'lib, unda tibbiyot sohasining samaradorligini oshirish, shuningdek, tashxis qo'yish va davolashning yuqori texnologik usullarini joriy etish orqali sog'lom turmush tarzini qo'llab-quvvatlash va kasalliklarni profilaktika qilish kabi muhim vazifalar alohida



takidlangan.

Bundan tashqari, Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida 2021-yil 18-may kuni sog'liqni saqlash sohasidagi islohotlar samaradorligini oshirish chora-tadbirlari muhokamasi yuzasidan videoselektor yig'ilishi o'tkazildi. Yig'ilish davomida Shavkat Mirziyoyev – Tibbiyotdagi islohotlarni sifatli, manzilli amalga oshirsak, odamlar rozi bo'ladi, sog'lig'ini tiklab oladi. Soha mutasaddilari, hokimlar har bir qishloq shifokori bilan, hamshiralar bilan gaplashib, jahon tajribasini o'rganib, chora-tadbirlar ko'rsa, albatta o'zgarish bo'ladi, – deb ta'kidladi.

Darhaqiqat, kadrlar tayyorlash va institutsional rivojlanish tadqiqot salohiyatini mustahkamlashning asosiy elementlari deb topildi. Shu sababdan, yurtimizda xorijiy tibbiyot ta'lim muassasalari bilan keng hamkorlik qilish, shu jumladan ularning filiallari va fakul'tetlarini ochish, shuningdek, yuqori malakali kadrlar tayyorlashda, ularni davolash-tashxis qo'yish jarayonida ishtirok etganligi uchun moddiy rag'batlantirish yo'li bilan yangi ilmiy ishlanmalar va texnologiyalarni joriy etishda tibbiyot oliy ta'lim muassasalari va ilmiy muassasalar professor-o'qituvchilari rolini oshirish bo'yicha qator ishlar amalga oshirilmoqda. Ko'plab rivojlanayotgan mamlakatlar o'zlarining sog'liqni saqlash muammolarini hal qilish uchun tadqiqot salohiyatini oshirishga intilmoqda. Biroq, kadrlar tayyorlash va tadqiqot salohiyatini kuchaytirish imkoniyati pastligicha qolmoqda. Rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlar o'rtasidagi hamkorlik va sheriklik tadqiqot uchun ko'p imkoniyatlar yaratadi va shu bilan bu bo'shliqni bartaraf qiladi va o'ziga xos muammoni hal qiladi.

Yuqoridagi fikr-mulohazalardan kelib chiqqan holda shuni xulosa qilib aytish mumkinki, bugungi kunda mamlakatimizda sog'liqni saqlash tizimida shu qadar ko'plab chora-tadbirlar amalga oshirilyaptiki, tibbiyot sohasi har qachongidan ham tezroq rivojlanib bormoqda. Buning yorqin dalili sifatida esa yangidan-yangi qabul qilinayotgan sog'liqni saqlash sohasi bo'yicha qaror, farmoyishlarni ko'rishimiz mumkin. Ayniqsa, xorij amaliyotini keng o'rganib chiqqan holda yuqori malakali kadrlarni yetishtirishga katta e'tibor berilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG'LIQNI SAQLASH TIZIMINI TUBDAN TAKOMILLASHTIRISH BO'YICHA KOMPLEKS CHORA-TADBIRLAR TO'G'RISIDA" gi 5590-son farmoni (2018-yil 7-dekabr)

2. O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining "Tibbiyot tashkilotlarini moliyalashtirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori (2020-yil 10-yanvar 19-son)

3. www.lex.uz sayti



ANOR (*PUNIKA GRANATUM*) MEVASINING TARKIBI VA SHIFOBAXSH XUSUSIYATLARI

Gulira'no Musliddinovna Qahorova,

Buxoro Davlat Tibbiyot Instituti talabasi

Jonibek Rashitovich Raximov,

Buxoro Davlat Universiteti biologiya kafedrasida o'qituvchisi

Mohinur Sodiqovna Muhammedova,

Vobkent tumandagi 8-maktab biologiya fani o'qituvchisi

Ithom Ikromovich Jo'rayev,

Navoiy Davlat Konchilik Instituti kimyo fanlari falsafa doktori

Annotatsiya: Yurtimiz tuprog'ida yer yuzidagi barcha o'simlar o'sishiga hammamiz guvohmiz. Turli xil olma, anor, uzum, shaftoli, sitrus mevalar, sabzavot, qovun - tarvuzlarni aytmaydiganmi? Qaysi faslda bo'lishimizdan qat'iy nazar bozor rastalariga, dasturxonlarimizga chiroy berib turuvchi bu mevalarni ko'ring. "Har baloni o'ylab topadiyaa, odamlar" deymiz beixtiyor. Ularning barchasi Ollohning biz-bandalariga bergan ne'mati hisoblanadi, buning uchun Yaratganga behisob shukronalar aytamiz.

Kalit so'zlar: Qur'on, anor, xurmozor, so'ritok, zaytun, Janubiy Amerika, Sharqiy, G'arbiy, Markaziy Osiyo, Ibn Sino, Tib qonunlari, ateroskleroz, anemiya, lavlagi, sabzi, hunsbuzar, sepkil, vitamin, impuls, alkaloid, antiseptik, diuretik, olma, uzum, ayurveda

Alloh taolo payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v) ga Qur'onni vahiy qilganlaridan beri 1400 yildan oshdi. Ushbu muqaddas kitobning sura va oyatlarida, garchi ular islomgacha ma'lum va mashhur bo'lsalar ham, ko'pgina mevalar nomi zikr qilinadi.

"U (so'ritoklarga) ko'tariluvchi va ko'tarilmaydigan bog'larni, xurmozorlar va mevalarni, xilma-xil bo'lgan ekinlarni (barglarni) bir-biriga o'xshagan va (mevalarni esa) o'xshagan zaytun va anorlarni yaratgan zotdir. Mevalaganda mevasidan yenglar, o'rim-terim kuni-da (bechora-miskinlarga) haqini beringlar va isrof qilmanglar! Albatta u isrof qilguvchilarni sevmas! (An'om surasi, 141-oyat)

Qur'onda nomi zikr qilingan mevalardan biri-anor hisoblanadi, uni jannat mevasi deb atash mumkin. Raxmon surasining 68-oyatida jannatda xurmo va anorlar borligi aytilgan. Yana oyatlarda anor yegan kishini Olloh taolo 100 kun mobaynida shaytondan muhofaza qilishi aytilgan.

Yunon-Rim tabobatchiligida nordon anor bezgak xurujiga qarshi qo'llanilganligi, me'da yal-lig'lanishida samarali vosita ekanligi yozilgan.

Anor (*punica granatum*) qadim zamonlardan beri tabobatda turli kasalliklarni davolashda ish-latilib kelingan. Xalqlar orasida "Anorning ichida qancha donasi bo'lsa shuncha xastalikka davo bo'ladi" degan gap bejiz emas. Ahmad at-Tayfoshiy "Tibbiyotda davolash" kitobida "Anor po'st-log'i haqida aytadigan bo'lsak, uning foydasi mevasidan kam emas, unda jarohatlarni bitishtiruvchi gall kislotasi bor" deb yozgan.

Qolaversa, hind Ayurvedasi-hayot haqidagi ilmda aytilishicha, anor mevasi uzum va olma qa-torida "tanani yoshartirish" xususiyatiga ega ekanligi yozilgan.

Anor Janubiy Amerika, Sharqiy, G'arbiy va Markaziy Osiyo mamlakatlarida, Rossiyaning Sochi hamda Qrim yarimoroli, Gruziya, Armaniston davlatlarida yetishtiriladi.

Anorlarning 140dan ortiq turi mavjud bo'lib, ular iqlim o'zgarishlariga chidamli, sovuqqa chiday oladi, tog'li hududlarda o'sib, hosil beradigan madaniy butalar sirasiga kiradi. Ayniqsa, quyoshli mamlakatlarda yaxshi o'sadi.

Anor o'simligi, mevasi, tarkibi haqida ma'lumotlar bersak. Anor po'sti pushti, qishg'ish rangli 0,3-0,5sm qalinlikda bo'ladi, Buyuk hakim Abu Ali ibn Sino quritilgan anor po'stidan tayyorlangan qaynatma oshqozon ichak yo'llari xastaliklarida, qon tupurish, milk qonashi, ich ketishi, shuning-dek, yaralarni yuvish, tishni mustahkamlash maqsadida og'izni chayish, gijja va siydikni haydash vositasi sifatida foydalanganligini o'zining "Tib qonunlari" asarida bayon qilgan.

Anor po'stlog'i tarkibida Fe elementi uchraydi. Po'stloq tarkibida 900 tagacha anor donachalari tartib bilan joylashgan, ular oq yupqa to'siq bilan bir qancha bo'laklarga bo'lingan bo'ladi. Olimlar buning ustida ham bir qancha tadqiqodlar olib borishgan va bo'laklar soni 4-5 ta va ba'zan 6 ta bo'lishi mumkinligi isbotlangan.



Anor mevasi tarkibida inson salomatligi uchun foydali bo'lgan Ca K Mg P Fe Na kabi elementlar hamda P C E B5 B6 B12 vitaminlari uchraydi. Meva tarkibidagi Fe elementi hamda B guruh vitaminlari qon hosil bo'lish jarayonida qatnashadi. K Ca Mg Na elementlari esa hujayralarga impuls o'tkazilishini ta'minlaydi.

Anor sharbatini ko'p iste'mol qilish ham zararli, chunki yuqorida aytganimizdek uning tarkibida mavjud bo'lgan K, Ca elementlari qonning ivishini ta'minlashini hammamiz bilamiz. Shu sababli qon quyuqlashib, qon bosimi ko'tarilishi mumkin.

Anor sharbati ovqat hazm qilish a'zolari faoliyati buzilganda tavsiya qilinadi, ishtahani oshirish xususiyatiga ham ega.

Ilmiy tadqiqotlar natijasida, anor sharbati ortiqcha yog' to'qimasini yo'qotishi aniqlangan. Anor sharbati homilador ayollar uchun foydalidir, sababi anor sharbati tarkibidagi Fe elementi homilada shu element yetishmovchiligining oldini oladi. Qolaversa, homiladorlikda kelib chiqadigan shishlarni kamaytiradi, ko'krak bezi saratoni kelib chiqishini oldini oladi. Anor sharbatini lavlagi, sabzi sharbati bilan aralashtirib ichish ham juda foydali.

So'nggi yillarda olimlarimiz tomonidan olib borilgan ilmiy izlanishlar natijasida anor sharbati tarkibida o'sma ko'payishini sekinlashtiradigan modda borligi aniqlangan, shunday ekan o'sma kasalligi bo'lgan bemorlarga anor sharbati iste'mol qilishlarini tavsiya qilishimiz mumkin. Albatta meyorga rioya qilgan holda!

Anor mevasi qalqonsimon bez, yurak kasalliklarini oldini olish hamda davolashda, ateroskleroz, anemiya kasalliklarida foydali ekanligi aniqlangan.

Anor sharbati antiseptik, diuretik, yallig'lanishga qarshi ta'sirlarga ham ega. Agar jarohatlangan joyga anor sharbati surtilsa, jarohatga mikroblar tushishi oldi olinadi hamda jarohat tez bitadi.

Anor sharbati tarkibidagi moddalar ko'zdagi moddalar almashinuvini faollashtiradi va aldoreduktaz - ko'z gavharining xiralashishiga olib keluvchi ferment miqdorini kamaytiradi. Anor suvini sevadiganlarga katarakta xavf solmaydi!

Qandli diabet, gastritda 1 yoki 2 stakan anor sharbatiga 1 choy qoshiq asal qo'shib iste'mol qilish yaxshi natija berishi isbotlangan. Anor sharbati oqartirish xususiyatiga ham ega, shu sababdan kosmetologiyada keng qo'llaniladi. Yuzdagi dog'lar, husnbuzarlar, sepskillarga qarshi yaxshi samara beradi.

Anor po'stlog'idan qatnatma, damlana tayyorlashda dozasiga e'tibor qaratish lozim, aks holda bosh aylanishi, qon bosimi ko'tarilishi, ko'rish qobiliyati pasayishi kuzatiladi. Chunki anor po'stlog'ida alkaloidlar mavjud, ularning ortiqcha miqdori organizm uchun zararli ta'sir ko'rsatadi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, serquyosh zaminimizda o'sadigan har bir o'simlik - bir olam! Hali o'rganilmagan o'simlik turlari qanchadan-qancha. Maqsadimiz ularning foydali xususiyatlarini o'rganib, fan, texnika, tibbiyot, sanoat rivojida foydalanib, yangi ixtirolar qilish, qolaversa, zararli ta'sirlarini o'rganib ulardan saqlanish chora-tadbirlarini o'rganishdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Abu Ali ibn Sino Tib qonunlari 5-kitob, Ozbekiston SSR Fanlar Akademiyasi nashriyoti, Toshkent-1960.
2. Quronboy Ismoilov "Anor bilan davolanish"; "Adabiyot uchqunlar" nashriyoti Toshkent-2014.
3. Safar Muhammad "Tabiatning o'zi tabib"; Toshkent-2016.
4. A.A. Qodirov. Tibbiyot tarixi; Davlat ilmiy nashriyoti. Toshkent-2005-yil.



BIOTIBBIYOTNING KELAJAGIDA AXBOROT TEXNALOGIYALARINING QO`LLANILISHI

Nishonqulov Shohruh Farxodjon o`g`li

Qo`qon universiteti, 1-bosqich

Iqtisodiyot yo`nalishi talabasi

Telefon: +998905862338

nishonqulovshohruh@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu tezisda men sun'iy intellekt (AI) / ma'lumotlarshunoslik va biotibbiyot o'rtasidagi bog'liqlik nuqtai nazarimni uzoq masofali retrospektiv nuqtai nazardan tushuntiraman. Zamonaviy biotibbiyotning rivojlanishi har doim yangi texnologiyalarning paydo bo'lishi bilan tezlashib kelgan. Barcha hayot tizimlari asosan o'zlarining DNKlaridagi ma'lumotlar bilan boshqarilgandan buyon biomeditsinani o'rganish uchun axborot fani alohida ahamiyatga ega. Fizikadan farqli o'laroq, biologiyada etakchi qonunlar topilmagan (yoki juda kam). Shunday qilib, biologiyada "" ma'lumotlardan bilimga "yondoshish muhim ahamiyatga ega. AI tarixan biotibbiyotga tatbiq qilingan va so'nggi paytlarda sun'iy intellektga asoslangan yondashuv oqsil tuzilishini bashorat qilish xalqaro tanlovida eng yaxshi ko'rsatkichga erishganligi haqidagi yangiliklar ushbu sohadagi yana bir muhim belgi sifatida qaralishi mumkin. bemorlarning genomidagi saraton qo'zg'atuvchi mutatsiyalarni aniqlash kabi izohlash.

Kalit so`zlar: biotibbiyot, sun'iy intellekt, NGS, DNK, D2K, Markov modellari, CASP

